MAKTABGACHA TALIMDA KOGNITIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Jo'rayeva Nigina Xayrullo qizi

Received: 19.10.2025
Revised: 20.10.2025
Accepted: 21.10.2025

Kalit so'zlar:
maktabgacha ta'lim, kognitiv ko'nikmalar, tafakkur, diqqat, xotira, ta'lim mazmuni, bolalar, pedagogika.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida maktabgacha ta'limda bolalarning kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni va uning asosiy komponentlari tahlil qilinadi. Kognitiv ko'nikmalar — bu bolalarning tafakkur, diqqat, xotira, idrok va muammolarni hal etish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Mazkur maqolada ta'lim jarayonida kognitiv ko'nikmalarni samarali shakllantirish uchun qo'llaniladigan metod va vositalar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kognitiv rivojlanishni ta'minlashda o'quv dasturlarining roli va mazmuni ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari bolalarning umumiy intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan ta'limiy yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Keywords:
preschool education, cognitive skills, thinking, attention, memory, educational content, children, pedagogy.

Abstract. This research study analyzes the content and main components of the development of children's cognitive skills in preschool education. Cognitive skills include children's thinking, attention, memory, perception, and problem-solving abilities. This article examines the methods and tools used to effectively form cognitive skills in the educational process. It also highlights the role and content of educational programs in ensuring cognitive development for preschool children. The results of the study serve to develop educational approaches aimed at increasing the general intellectual potential of children.

Ключевые слова:
дошкольное образование, познавательные способности, мышление, внимание, память, содержание образования, дети, педагогика.

Аннотация. В данном исследовании анализируются содержание и основные компоненты развития познавательных способностей детей в дошкольном образовании. К познавательным способностям относятся мышление, внимание, память, восприятие и способность решать проблемы. В статье рассматриваются методы и средства, используемые для эффективного формирования познавательных способностей в образовательном процессе. Также освещаются роль и содержание образовательных программ в обеспечении познавательного развития детей дошкольного возраста. Результаты

исследования служат для разработки образовательных подходов, направленных на повышение общего интеллектуального потенциала детей.

Kirish. Barcha pedagogik tizimlarning tarkibiy qismlari pedagogik tizimning asosiy tavsiflari bo‘lganligi sababli, ularning mavjudligi haqiqatini shakllantiradigan va ularni boshqa pedagogik bo‘lmagan tizimlardan ajratib turadigan, maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarning kognitiv rivojlanish modelida integratsiyalashgan ta’limiy o‘yin faoliyatida tarkibiy qismlar ichki holatini tashkil etishini ochib beradi. Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarning kognitiv rivojlanishi - doimiy ravishda amalga oshiriladigan jarayonning asosiy shakl va usullarning maqsad, vazifa va mazmuni o‘rtasidagi bog‘lanishlarni ochib berishdir. Funksional tarkibiy qismlar pedagoglar va bolalarning barqaror aloqalarini ta’minlaydi va pedagogik tizimlarning harakatlanishiga, rivojlanishiga olib keladi.

Pedagogika nuqtayi nazaridan modellashtirish:

1) obyektlarni o‘z modellari bo‘yicha tadqiq qilish usuli - tabiiy yoki ijtimoiy voqelikning ma’lum bir qismining muqobillari;

2) real mavjud obyekt, hodisa va holatlarni modellar orqali o‘rganish [70].

Modellashtirish - nazariy va empirik, induksiya va deduksiyani birlashtirgan ilmiy bilish usulidir.

Modellashtirishni o‘rganish boshqa tadqiqot muammolarini ko‘rib chiqish, aniq bir masalani to‘liq va har tomonlama o‘rganishga imkon beradigan ilmiy-metodik asoslarga tayanishni talab qiladi.

Mazkur yondashuv ta’limning tegishli strategik mo‘ljallarini amalga oshirish uchun uslubiy ko‘rsatmalarni o‘zida mujassam etgan ta’lim tizimining barcha tarkibiy qismlarini asoslaydi. Albatta, yondashuvning o‘zi yagona bo‘lishi mumkin emas, u qo‘llanilayotgan ta’lim strategiyalarida muqobillarini taklif qiladi.

Yondashuvni kognitiv va amaliy faoliyatning maxsus shakli, pedagogik hodisalarni ma’lum bir tomondan hamda tadqiq etilayotgan jarayonni o‘rganish strategiyasi va asosiy qiymat yo‘nalishi sifatida ko‘rib chiqamiz.

Zamonaviy ilmiy-pedagogik adabiyotlarda tasvirlangan barcha uslubiy yondashuvlardan ushbu tadqiqotning maqsadiga muvofiq metodologik asosda integral ta’limiy o‘yin faoliyatida maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarning kognitiv rivojlanish muammosini, epistemologik, shaxsiy faoliyatini va integratsiyalashgan yondashuvlarni olamiz. Ushbu yondashuvlarning har birini ko‘rib chiqamiz va ularda uchraydigan muammoni hal qilishdagi ahamiyatini namoyish etamiz.

Ta’lim bilishning ijtimoiy-individual shakllarini yaqinlashtiradi, individual

faoliyatni ijtimoiy bilish tuzilishiga yondashtirib, bolaning o‘rganishida shaxsiy tajribasi va uni anglash o‘rtasidagi ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Maktabga tayyorlov yoshidagi bolani ta’lim tarbiyasini individuallashtirish, ta’lim funksiyalarini ushbu yondashuv bilan ta’limiy o‘yin faoliyati jarayonini amalga oshirishdir. Maktabga tayyorlov yoshidagi bolada kognitiv rivojlanish fenomenini o‘rganishda, ushbu yondashuv ong va uning evolyutsion tabiati, shuningdek, faoliyat tavsifini o‘rganishga yordam beradi.

Ushbu yondashuv har bir bola shaxsini shakllantirish manbai va uning rivojlanishining asosiy omili bo‘lgan faol faoliyatga jalb qilish muhimligini ta’kidlaydi. Mashg‘ulot doirasida inson faoliyatining namoyon bo‘lishi o‘zi va atrof olamga qadriyatli munosabatda bo‘lishni nazarda tutadi. Mashg‘ulot jarayonida bir qator ahamiyatli o‘ziga xosliklarni ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq: pozitiv, variativlik, ijtimoiy munosabatga kirishish, maqsadni aniq belgiab olish.

Bolalarning aqliy kamoloti kognitiv vositalarning samarali foydalanish bilan ahamiyat kasb etadi. Masalan, o‘yin, rasm, musiqa, mehnat va boshqalar. Kognitiv faoliyatli yondashuvda bola uchun katta yuqori imkoniyatlarni ta’minlash muhimdir. Chunki, kognitiv faollik faqat bolaning xatti-harakatlarigina emas, balki, aqliy faoliyati hamdir.

Kognitiv faollikni faollashtiradigan jihatlardan biri bu bilish faoliyatini rivojlantirish va o‘yinlardan samarali foydalanish orqali yuz beradi.

Shunga ko‘ra kognitiv faoliyat umumlashmasida bolaning bilish faoliyati, uning munosabatlarda ishtiroki, harakatlarining natijasi, shaxs sifatidagi rivojlanishida kuzatiladi.

Shaxsiy-faoliyatli va integratsiyalashgan yondashuvlar asosida tadqiqot ishning maqsadi va vazifalari hisobga olgan holda, integratsiyalashgan ta’limiy o‘yin faoliyatida bola shaxsining kognitiv rivojlanish jarayonining funksional modeli ishlab chiqildi.

Bola shaxsining har tomonlama kamol topishi, rivojlanishi faoliyatda foydalaniladigan ta’limiy o‘yinlar hamda tamoyillarning uyg‘unligiga bog‘liq:

Tizimlilik tamoyili. Bizga ma’lumki, ta’lim maqsadlariga erishishda bir qator o‘ziga xos omillar bo‘lib, o‘quv-mashg‘ulotlarini tashkil etishda mazkur omillarga tayanish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, maktabga tayyorlov yoshdagi bolalar xatti-harakatlarining ma’lum bir bosqichlar asosida bilishga, o‘rganishga, tahlil qilihga nisbatan izchillilik bilan bajarilishi ham albatta, tizimlilik tamoyiliga asoslanganligi bildiradi. Shu sababli tizimlilik tamoyili bolaning kognitiv bilishga tomon intilishini tushunarli va amiq tarzda ifodalaydi. Bunda mavzu asosida aniq ta’lim maqsadiga erishishda samara beradigan turli tadbir, shakl, usullarni tizimlashtirish va

integratsiyalash taklif etiladi.

Ushbu maqsad maktabgacha ta'limning DTS va "Ilk qadam" davlat dasturida o'z aksini topgan. Ushbu hujjatlarda maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishi pedagogik faoliyatning ustuvor yo'nalishi sifatida ko'rib chiqilgan. Ushbu hujjatlarga muvofiq, maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarning kognitiv rivojlanishining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: hissiy bilishni rivojlantirish; kognitiv tadqiqot rivojlantirish; boshlang'ich matematik tasavvurlarni shakllantirish; dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirish.

1-jadval. Bolalarning kognitiv imkoniyatlari va ularni ta'lim jarayonida qo'llay olishi

Bilish imkoniyatlari	**Kichik maktabgacha yosh**	**O'rta maktabgacha yosh**	**Katta maktabgacha yosh**
Bilish usullari	Sensor bilish	Nutq bilish manbai sifatida	Intellektual vazifalar: tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, guruhlarga ajratish.
Bilish manbalari	Kattalarni, predmetlar manipulyatsiyasi, o'yinlarnikuzatish.	Kattalarga bilish haqidagi savollar bilan murojaat qilish	Bolaning bilish bo'yicha tashabbusi
Bilim olishga nisbatan munosabat	Olamning hissiy-sezgilardagi obrazi	Olingan ma'lumotga ijobiy munosabatda bo'lish	Bilishga nisbatan faol ijobiy munosabatda bo'lish
Bilish davrlari	Qiziqish orqali ma'lumotlarni to'plash	Bilishga bo'lgan qiziquvchanlik natijasi sifatida ma'lumotlarni tartiblashtirish	Bola tomonidan ma'lumotlarni mustaqil olinishi
Vositalar	Atrof olam predmetlari	Kitoblar, kattalarning hikoyasi, san'at asari	Kitoblar, kattalarning hikoyasi, ommaviy axborot vositalari, kompyuter
Metodlar	Kuzatish, syujetli-rolli o'yinlarni	Kitoblarni o'qish, qarash, suhbat,	Tajriba, tadqiqot, loyihalashtirish,

	tomosha qilish	qoidali o‘yinlar, kattalarning hikoyasi	o‘ziga qiziq bo‘lgan narsalarni yig‘ish
Shakllar	Kattalar bilan birgalikdagi faoliyat	Kattalar va tengdoshlari bilan birgalikdagi faoliyat	Bolaning mustaqil faoliyati va tengdoshlari bilan birgalikdagi faoliyati

Bolalarda asosiy yo‘nalishlardan birini hissiy rivojlanish tashkil etadi, bu bilish usulidir. Sensor rivojlanish deganda ongni rivojlantirish va bolani narsa va hodisalarning o‘ziga xos muhim xususiyatlarini, ularning ko‘rinishi, rangi haqida, o‘lchamlari, tabiatdagi maqomi, shu bilan birga hid va ta’mga doir tushunchalarini shakllantirish jarayoni tushuniladi. Sensor rivojlanish aynan shu davrda sezgi a’zolariining faoliyatini yaxshilash hamda tabiat haqida yaxlit bilish uchun eng qulaydir. Bu insoniyat tomonidan yaratilgan sensor madaniyatini asta-sekin o‘zlashtirilishidir.

Borliq to‘g‘risidagi, undagi hodisalarni yetarli idrok etishni rivojlantirishga xizmat qiladigan sensorika olamni bilishda asos hisoblanadi. Bu borada birinchi qadam ijtimoiy-hissiy tajriba hisoblanadi:

Xulosa. Maktabgacha ta’limda kognitiv ko’nikmalarni rivojlantirish mazmuni va metodlari bolalarning intellektual salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion metodlardan foydalanish bolalarning tafakkur, diqqat, xotira va idrok qobiliyatlarini samarali shakllantirishga yordam beradi. Shu sababli, maktabgacha ta’lim dasturlarini takomillashtirish va ularni amaliyotga joriy etish muhim vazifa hisoblanadi. Kognitiv ko’nikmalarni rivojlantirish bo’yicha olib borilayotgan tadqiqotlar va pedagogik tajribalar ta’lim sifatini oshirishga va bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev, S. (2018). *Maktabgacha ta’limda kognitiv rivojlanish*. Toshkent: O’qituvchi.
2. Karimova, N. (2020). *Bolalar kognitiv ko’nikmalarini rivojlantirish metodlari*. Toshkent: Fan va Ta’lim.

3. Mamatqulov, O. (2019). *Innovatsion pedagogik texnologiyalar*. Samarqand: Universitet nashriyoti.
4. Rasulov, J. (2021). *Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish dasturlari*. Toshkent: Pedagogika.
5. Sobirova, D. (2017). "Ta'limiy o'yinlar va ularning kognitiv faoliyatga ta'siri," *Pedagogika va psixologiya jurnali*, 3(12), 45-52.